

“ME’YOR UL-ASH’OR” VA “MEZON UL-AVZON” RISOLALARIDAGI ZIHOFLAR QIYOSI

Satiyeva Mavluda Raximjon qizi

ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) mutaxassisligi 2-kurs magistranti

mavludasatiyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada fors olimi Nasiruddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or” hamda Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” risolalari qiyosiy tahlilga tortilgan. Tusiy hamda Navoiy fors va turkiy aruz nazariyasini yaratishda qanday usullardan borishgani qiyoslangan. Risolalarda aruzga oid ritmik birliklardan biri – zihof qay tarzda berilgani qiyoslangan. Natijada, Tusiy risolasida 34 zihofni, Navoiy esa 32 zihofni ta’riflab ko’rsatgani ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: aruz, forsiy aruz, turkiy aruz, zihof, Tusiy, Navoiy, tag‘ayyur, o‘zgarish.

Abstract. This article is devoted to the comparative analysis of treatises as “Mi’yar al-ash’or” by Persian scholar Nasiruddin Tusi and “Mizan al-Avzon” by Alisher Navoi. The methods used by Tusi and Navoi in creating the Persian and Turkish Aruz theory are compared. In the treatises, one of the rhythmic units related to aruz - zihof - is compared. As a result, it was revealed that Tusi’s treatise described 34 zihofs, while Nava’i described 32 zihofs.

Keywords: aruz (prosody), zihaf (change), persian aruz, turkish aruz, Tusi, Navai.

Mumtoz she’riyat namunalari esa aruz she’riy tizimi doirasida yaratilgan. Aruz tizimi qonun-qoidalarini milodiy VIII asrda yashab o‘tgan, “arab filologiyasining otasi” [1, 6] deb ta’riflanadigan Xalil ibn Ahmad ishlab chiqadi. Uning asari bizgacha yetib kelmagan bo‘lsa-da, izdoshlarining asarlari orqali aruzga oid ilk asarda keltirilgan ma’lumotlar haqida xabardor bo‘lamiz. Binobarin, she’riy tizim qoidalari VIII asrda yaratilgan bo‘lsa-da, amalda aruzga asoslangan she’rlar qadimdan mavjud bo‘lgan.

Aruz vazni IX asrdan boshlab fors-tojik she’riyatiga, XI asrdan boshlab esa turkiy she’riyatga ham kirib keldi. Aruz Yaqin Sharq va o‘rta Sharqda keng tarqalgach, bu she’riyat nazariyasini qabul qiluvchi har bir xalq uni o‘z ona tili qonun-qoidalariga moslashga harakat qildi. Natijada, “forsiy aruz”, “turkiy aruz” kabi maxsus atamalar vujudga keldi.

Shu tariqa Xalil ibn Ahmaddan keyin ham aruz va qofiya bo‘yicha arab hamda fors tillarida yuzlab nazariy qo‘llanmalar yaratilgan. Arab olamida Mahmud Zamahshariyning “Al-Qistos”, fors olamida Qays Roziyning “Al-Mo‘jam”,

Nasiruddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or”, Vohid Tabriziyning “Jami muxtasar”, Sayfiy Buxoriyning “Aruzi Sayfi”, Atoulloh Husayniyning “Badoyi’ us-sanoyi”, Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz”, turkiy olamda Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog’a”, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon”, “Mezon ul-avzon”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Muxtasar” risolalari eng ko’zga ko’rinarli risolalardan sanaladi.

Nasiruddin Tusiy nomi bilan tanilgan Abu Ja’far Muhammad ibn Muhammad XIII asr fors olamida ilm-fan va san’atning gullab yashnagan davrida yashab ijod qilgan qomusiy olim bo’lib, 1201-yil 17-fevral (hijriy 597-yil) da tavallud topgan.

Nasiruddin Tusiyning 1253-1254-yillarda yozilgan, aruzning nazariy masalalari va qofiya ilmiga bag’ishlangan “Me’yor ul-ash’or” risolasi fors tilidagi bizgacha yetib kelgan ilk asarlardan biri hisoblanadi.

Nasiruddin Tusiy aruzning nazariy asoslari haqida qimmatli fikrlar bildirib, “Me’yor ul-ash’or” risolasi bilan aruzshunoslik tarixiga muhim yangiliklar kiritgan, bundan tashqari o’zidan keyingi ilmiy-nazariy ishlarga jiddiy ta’sir ko’rsatgan, xususan Nasiruddin Tusiyga Ahmad Taroziy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur kabi olimlar murojaat qilgan.

Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asari esa 1492–1493 yillarda yaratilgan bo’lib, muxtasar uslubdagi risola hisoblanadi. Asar Husayn Boyqaro topshirig’iga ko’ra turkiy tilda yaratilgan. Asar o’z davridayoq zamondoshlari tomonidan yuksak baholangan, temuriy shahzodalar uchun aruz ilmini o’rganishda qo’llanma sifatida tavsiya etilgan. Alisher Navoiy muqaddimada o’zidan avval yaratilgan aruzga doir manbalar: Xalil ibn Ahmadning “Kitob ul-ayn”, Shams Qays Roziyning “Al-mo’jam”, Nasiriddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or”, Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz” asarlariga to’xtalib o’tib, ularda mavjud bo’lmagan ba’zi qoida, doira va vaznlarni o’z asarida keltirib o’tishini aytadi. Ya’ni: “...necha qoidau doira va vaznkim, hech aruzda, misli fan vozii Xalil ibni Ahmad va ilm ustodi Shams Qays kutubida va Xoja Nasir Tusiyning “Me’yor u-l-ash’or”ida, balki Hazrati Maxdumiy navvara marqadahu nuran “Aruz”larida yo’q erdikim, bu faqir bu fan usulidin istixroj qilib erdikim, bu kitobg’a izofa qildim” [2, 39].

Bilamizki, aruz nazariyasida sakkiz asl rukn – solim ya’ni to’liq, butun ruknlar hisoblanadi. Sakkiz asl ruknning o’zi bilangina ijod qilish aruz imkoniyatlarini to’la ochib berolmaydi va bu holatda asliy ruknlar tarkibida turli o’zgartirishlarni qo’llash bilan xilma-xillikka erishiladi. Aruzshunoslikda solim ruknlar tarkibidagi o’zgarish (tag’ayyur) **zihof** deb yuritiladi va bu zihof natijasida yuzaga kelgan rukn tarmoq ruknlar yoki **furu’lar** deb ataladi. Zihof masalasi aruzshunoslikda eng murakkab va chalkash masalalardan hisoblanadi. Manbalarda zihoflarni o’rganishning to’rt xil usuli tavsiya qilinadi: a) zihoflardagi o’zgarishlarni avval umuman sharh etish; b) zihoflar va ular asosidagi o’zgarishlarni asl ruknlar bo’yicha ko’rsatish; d) zihoflarni bahrlar

bo'yicha ko'rsatish; e) zihoflarni ularning mufrad (yakka) va murakkab singari turlari bo'yicha izohlash [3, 60].

“Me'yor ul-ash'or”ning oltinchi fasli ruknlar va ulardan hosil bo'luvchi zihoflar haqidadir. Nasiruddin Tusiy “Me'yor ul-ash'or”da arab aruziga xos 34 zihofni sanab, asosiy ruknlardagi o'zgarishlarni tag'yirotda deydi. Uning fikricha, arab aruzining 20 ta zihofi mufrad, 14 tasi murakkab bo'ladi. Mufrad zihoflarga maxbun, matviy, maqbu, makfuf, muzmar, ma'sub, mavquf, makshuf, maqsur, maqtu', mahzuf, axazz, aslam, musha'as, asram, axram, a'sab, musabbag', muzol, muraffal; murakkab zihoflarga mashkul, maxbul, ma'qul, mankus, maktuf, mavqus, majzul, abtar, asram, ashtar, axrab, aqsam, ajam va a'kas kiradi.

Yuqorida sanalgan zihoflardan 75 qo'shma vaznlar: fauvlundan oltita, foilun ikkita, mafoiylun oltita, foilotun o'n bitta, failotun bitta, mustaf'ilun to'qqizta, mustaf'ilun to'rtta, maf'uvlotu o'n bitta, mufa'alatun sakkizta, mutafoilun o'n beshta furu' hosil bo'ladi.

Nasiruddin Tusiy risolasida 75 qo'shma vazn borligi haqida aytsa-da, 73 ta qo'shma vaznni sanaydi.

Arab aruziga xos zihoflarni izohlab bo'lgach, Tusiy fors aruziga xos zihoflar ta'rifiga o'tadi. Arab aruziga xos zihof va furu'lar fors aruziga ham xos hisoblanadi. Tusiy ularni qayta sanab o'tirmay, fors aruziga xoslarini oddiy va murakkab zihoflar deb guruhlaydi. Fors aruziga xos oddiy zihoflarga araj, madrus, matmus, murakkab zihoflarga musakkan, muhannag, azal, majzub zihoflarini kiritadi. Tusiy keltirgan yetti zihofdan matmus, muhannag, azal, majzub o'zidan ilgari aruzshunoslar asarlaridan ma'lum bo'lgan, qolgan uch zihof – araj, madrus, musakkan zihoflarini Tusiy ilk bor keltiradi.

Tusiyning matmus va azal zihoflariga bergan ta'rifi o'zidan avvalgi va keyingi aruzshunoslar asarlaridagi ta'riflardan farqlanadi. Tusiy yaratgan musakkan, araj, madrus va matmus zihoflari esa “Me'yor ul-ash'or”da ham, undan keyin ham unchalik keng tarqalmaydi. Tarlan Guliyev Tusiy bu zihoflarni nazariy jihatdan sharhlash orqali fors aruzi imkoniyatlari va o'ziga xosliklariga e'tibor qaratmoqchi bo'lganini qayd etadi. Tusiy fors aruzidagi yetti asosiy rukndan 35 furu' hosil bo'lishini qayd etadi. Shu tariqa, arab va fors aruzida jami 41 zihof ishlatiladi va 108 furu' yaratiladi. Forsiy furu'lar haqida gapirganda Nasiruddin Tusiy aynan fors aruziga aloqador uchta yangi tafoyil – mafoilon, fa'lan, fa' haqida gapiradi.

Tusiyning zihoflar haqidagi qarashlari o'zidan avvalgi va keyingi aruzshunoslar fikridan farqlanadi.

Alisher Navoiy zihofni quyidagicha ta'riflaydi: “Va bu besh aslning har biriga necha far'durkim tag'ayyurlar sababidinki, ani aruziylar “zihof” derlar, hosil bo'lur (Va bu besh aslning har birida o'zgarishlar sababidan yangi shakllar

hosil bo‘ladiki, aruziyalar uni zihof deb ataydilar)” [2, 43].

“Me’yor ul-ash’or”da 34 ta, “Mezon ul-avzon”da 32 ta zihof sanalgan bo‘lib, ular quyidagi jadvalda o‘z aksini topadi:

№	Zihof nomi	Me’yor ul-ash’or	Mezon ul-avzon
1.	qabz	+	+
2.	qasr	+	+
3.	xazf	+	+
4.	salm	+	+
5.	qat’	+	+
6.	xabn	+	+
7.	kaff	+	+
8.	xarm	+	+
9.	xarb	+	+
10.	shatr	+	+
11.	xazaz	+	+
12.	tash’is	+	+
13.	shakl	+	+
14.	tasbig’	+	+
15.	izola	+	+
16.	tayy	+	+
17.	xabl	+	+
18.	tarfil	+	+
19.	vaqf	+	+
20.	kashf	+	+

21.	ssalm	+	+
22.	jabb	-	+
23.	zalal	-	+
24.	batr	-	+
25.	rab'	-	+
26.	taxli'	-	+
27.	raf'	-	+
28.	jad'	-	+
29.	sarm	-	+
30.	xadif	-	+
31.	nahr	-	+
32.	xatm	-	+
33.	aql	+	-
34.	naqs	+	-
35.	katf	+	-
36.	jamm	+	-
37.	izmor	+	-
38.	jazl	+	-
39.	qasm	+	-
40.	vaqs	+	-
41.	aqs	+	-
42.	asb	+	-
43.	xazm	+	-
44.	mavfur	+	-

45.	muarra	+	-
46.	majzuvv	+	-

Navoiy zihoflarni berishda nisbatan sodda usuldan foydalanadi, ya'ni turkiy aruzga xos besh asliy rukn va uning zihoflar natijasida qanday tarmoq ruknlarga ega bo'lishini ko'rsatib o'tadi: "Va faulunning zihofoti oltidurur, furu'i ham olti. Ammo zihofoti: 1) «Qabz» – faulunda faulu bo'lur, «lom» zammi birla. 2) «Qasr» – faulunda faul bo'lur, «lom» sukuni bila. 3) «Hazf» – faulunda fau bo'lur, faul aning o'rnig'a qo'yarlar. 4) «Salm» – faulunda «fo» isqotidur, ulun qolur; fa'lun aning o'rnig'a qo'yarlar. 5) «Sarm» – faulunda «fo» va «nun» isqotidur, ulu qolur, fa'lu aning o'rnig'a qo'yarlar. 6) «Batar» – faulunda vatadi majmu' isqotidur, lun qolur, fa' aning o'rnig'a qo'yarlar. Ammo aning furu'i: faulu – maqbuuz; faulu – maqsur; faul – mahzuf; fa'lun – aslam; fa'lu – asram; fa' – abtar" [2, 46].

Tusiy hamda Navoiyning ruknlardagi zihof va furu'lar soni haqidagi qarashlarini quyidagi jadval bilan solishtirish mumkin:

	Ruknlar nomi	"Me'yor ul-ash'or"		"Mezon ul-avzon"	
		fors aruzida furu'	arab aruzida furu'	zihof	furu'
1.	Fauvlun	-	6	6	6
2.	Foilun	4	2	-	-
3.	Mafoiylun	12	6	11	11
4.	Mustaf'ilun	4	10	9	14
5.	Foilotun	7	11	10	15
6.	Maf'uvlotu	4	11	9	14
7.	Mafoilatun	-	8	-	-
8.	Mutafoilun	-	15	-	-

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har ikki risola ham aruz nazariyasini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Har ikki risolada zihoflarni berishda yakdillikni, ya'ni zihoflar bevosita asliy ruknlarga ko'rsatilgan ta'siri natijasi bilan izohlanishini

kuzatamiz. Ammo Nasiruddin Tusiyning zihoflar borasidagi qarashlari arab va forz aruzini qiyosan o‘rganish bilan ifodalangani uchun ham nisbatan to‘liqroq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupova D. Aruz alifbosi. Toshkent: Akademnashr, 2015.
2. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. – Тошкент: Фан, 2000.
3. Тўйчиев У. ўзбек поэзиясида аруз системаси. - Тошкент: Фан, 1985.
4. Насируддини Тўсий. Меъёр-ул-ашъор / Ҳозиркунандаҳои чоп У.Тоиров, М.Абдуллоев, Р.Чалол. – Душанбе: Ориёно, 1992.

